


KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

RAQAMLI BUXGALTERIYA VA SUN'IY INTELLEKTNING BUXGALTERIYA HISOBI JARAYONIGA TA'SIRI

Mamirov Zamir Uzoq o'g'li

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali stajyor o'qituvchisi

zamirmamirov99@gmail.com

Xoliqulova Ra'no Sherali qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

rano38954@gmail.com

Annotasiya. Maqolada sun'iy intellekt va raqamli buxgalteriyaning buxgalteriya hisobini modernizatsiyalashdagi roli va funksiyalari o'rganilgan. Al yordamida buxgalteriya amaliyotida avtomatlashtirish, aniqlik va tezlik oshgani, biroq inson nazoratining saqlanishi zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli buxgalteriya, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, moliyaviy tahlil, raqamli iqtisodiyot, hisob jarayoni, innovatsion texnologiya, AI tizimi

Аннотация. В статье рассматриваются роль и функции искусственного интеллекта и цифрового учета в модернизации бухгалтерского учета. Утверждается, что ручные методы учета повысили автоматизацию, точность и скорость, но при этом необходимо сохранить человеческий контроль.

Ключевые слова: Цифровой учет, искусственный интеллект, автоматизация, финансовый анализ, цифровая экономика, бухгалтерский процесс, инновационные технологии, система Ал.

Abstract. The article explores the role and functions of artificial intelligence and digital accounting in modernizing accounting. It argues that manual accounting practices have increased automation, accuracy, and speed, but that human control must be maintained.

Keywords: Digital accounting, artificial intelligence, automation, financial analysis, digital economy, accounting process, innovative technology, AI system.

Kirish

So'ngi yillarda raqamli texnologiyalar buxgalteriya hisobi jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar buxgalteriya amaliyotida aniqlik, tezkorlik va shaffoflikni ta'minlamoqda. Ushbu maqolaning maqsadi -AI texnologiyalarining buxgalteriya hisobiga ta'sirini tahlil qilish hamda ularni joriy etishdagi imkoniyat va muammolarni aniqlashdan iborat. Sun'iy intellekt buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirib, samaradorlikni oshiradi, biroq inson omilining o'rni hanuz muhimligicha qolmoqda. Shu sababli, zamonaviy buxgalterlar raqobatbardosh bo'lish uchun sun'iy intellect texnologiyalaridan oqilona foydalanishlari zarur.

Sun'iy intellekt –bu inson ongidan farqli ravishda mashinalar tomonidan amalga oshiriladigan aqliy faoliyat tizimidir. U 1956-yilda alohida ilmiy yo‘nalish

sifatida shakllanib, 2012-yildan boshlab tez sur‘atlarda rivojlana boshladi. Bugungi kunda sun‘iy intellekt fikrlash, o‘rganish, tilni qayta ishlash, rivojlantirish va robotexnika kabi ko‘plab sohalarida qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi bu texnologiyaning eng faol kirib borayotgan yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish sun‘iy intellektning buxgalteriya hisobi va audit hamda moliya sohalariga tatbiq etgan holda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

So‘ngi yillarda buxgalteriya hisobi jarayoniga raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni joriy etish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Karimov X., Qodirov D. va Jo‘rayev Sh. (2022) o‘z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish, ma‘lumotlarni tezkor qayta ishlash va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, raqamli buxgalteriya tizimlari moliyaviy hisobotlarning aniqligini oshirib, tahliliy jarayonlarni yengillashtiradi.

Tursunova M. (2021) o‘zining “Sun‘iy intellekt va moliyaviy hisobotlarning raqamlashtirilishi” nomli ilmiy ishida sun‘iy intellekt yordamida buxgalteriya ma‘lumotlarini tahlil qilish, xatoliklarni aniqlash va soliq hisoblarini avtomatik shaklda tuzish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Muallifning fikricha, bunday texnologiyalar inson mehnatini kamaytirish bilan birga, buxgalterlarning strategik qarorlar qabul qilishdagi rolini kuchaytiradi.

Shuningdek, Abdullayev N. va hammualliflar (2023) “Buxgalteriya hisobida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi” nomli maqolasida raqamli tizimlar va sun‘iy intellektni qo‘llash natijasida buxgalteriya hisobotlari sifati oshgani, ma‘lumotlarning ishonchliligi va tahliliy imkoniyatlarining kengaygani haqida ilmiy asoslangan xulosalar bergan. Ularning fikricha, buxgalteriya sohasi kelajakda to‘liq raqamli platformalarga asoslangan shaklda faoliyat yuritadi.

Sun‘iy intellekt (SI) atamasi ilk bor John McCarthy tomonidan 1956-yilda Dartmouth konferensiyasida ilmiy muomilaga kiritilgan. U SI ni inson tafakkuriga o‘xshash tarzda mustaqil o‘rganish va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega tizim sifatida ta‘riflangan (McCarthy, 1956).

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda raqamli buxgalteriya va sun‘iy intellekt texnologiyalarining buxgalteriya hisobi jarayoniga ta‘siri tahlil, taqqoslash, kuzatish va umumlashtirish usullari asosida o‘rganildi. Ish davomida O‘zbekiston buxgalteriya tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish holati amaliy misollar asosida o‘rganilib, xorijiy tajribalar bilan taqqoslab tahlil qilindi. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, davlat qarorlari hamda statistik ma‘lumotlar tahlil manbai sifatida qo‘llanildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi

to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni hamda 2022-yil 2-dekabrda PQ-4996-son Qarori asosida raqamli transformatsiya jarayonining buxgalteriya tizimiga ta’siri o‘rganildi. Raqamli buxgalteriya tizimi va sun’iy intellekt integratsiyasining O‘zbekiston buxgalteriya hisobi jarayonida yuzaga keltirayotgan afzalliklari va cheklavlari aniqlanib, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Afzalliklari va kamchiliklari:

Afzalliklar:

1. Aniqlik va xatolarni kamaytirish – AI va analitik tizimlar inson xatosi ehtimolini sezilarli darajada pasaytiradi.
2. Jarayonlarni tezlashtirish – hisob-kitoblar va tahlillar avtomatlashtiriladi, vaqt tejraladi.
3. Ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish – katta hajmdagi ma’lumotlar ichidagi yashirin tendensiyalarni aniqlash imkoniyati.
4. Boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash – real vaqt rejimida hisobotlar va tahlillar orqali tezroq qaror qabul qilish.
5. Resurslarni tejash – inson mehnati kamayadi, buxgalterlar strategik tahlil va maslahatlarga e’tibor qaratadi

Kamchililar:

1. Dasturiy ta’minotning qimmatligi – AI va analitik tizimlarni joriy etish katta xarajat talab qiladi.
2. Mutaxassis yetishmasligi – IT va buxgalteriya bilimiga ega kadrlar kamligi.
3. Axborot xavfsizligi muammolari – moliyaviy ma’lumotlar tizimga bog‘liq bo‘lib, xakerlik tahdidi mavjud.
4. Algoritmning shaffof emasligi – AI qarorlarini tushuntirish qiyin va bu ishonchni kamaytiradi.
5. Moslashuvdagi qiyinchiliklar – kichik va o‘rta korxonalar uchun tizimni joriy etish murakkab.

Takliflar:

- Bosqichma-bosqich joriy etish – raqamli buxgalteriya va sun’iy intellekt tizimlarini kichik pilot loyihalar orqali boshlab, amaliy tajriba asosida kengaytirish.
- Kadrlarni tayyorlash – buxgalterlar va IT-mutaxassislar uchun maxsus treninglar, kurslar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.
- Mahalliy va ochiq kodli tizimlar – dasturiy ta’minot xarajatlarini kamaytirish uchun mahalliy ishlab chiqilgan yoki ochiq kodli tizimlardan foydalanish.
- Axborot xavfsizligi – moliyaviy ma’lumotlarni shifrlash, backup va kirish huquqlarini boshqarish orqali xavfsizlikni ta’minlash.
- Texnologik yangiliklarni kuzatish – AI va raqamli buxgalteriya sohasidagi yangi vositalarni doimiy o‘rganish va tizimlarni yangilab borish.

Xulosa

Maqolada raqamli buxgalteriya va sun’iy intellektning buxgalteriya hisobi jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, AI va raqamli texnologiyalar hisob-kitob va moliyaviy ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi, aniqlikni oshiradi va qaror qabul qilish sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, bu tizimlar auditorlik va moliyaviy nazorat

jarayonlarida samaradorlikni oshirishga imkon beradi. O‘zbekistonda raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich olib borilishi lozim. Bu orqali korxonalar o‘z xodimlarini yangi texnologiyalarga moslashtirish, moliyaviy hisobotlarni tez va ishonchli shaklda tayyorlash imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, sun‘iy intellekt va raqamli buxgalteriya sohasidagi yangi texnologiyalarni kuzatib borish va tizimlarni yangilab turish orqali, O‘zbekiston buxgalteriya hisobi tizimi zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga moslashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni
2. Karimov X., Qodirov D., Jo‘rayev Sh. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining rivojlanishlari. Toshkent moliya institute ilmiy jurnali.
3. Tursunova M. (2021). Sun‘iy intellect va moliyaviy hisobotlarning raqamlashtirilishi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi nashriyoti.
4. Abdullayev N. va boshqalar (2023). Buxgalteriya hisobida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi. “Innovatsion iqtisodiyot” jurnali.
5. McCarthy, J. (1956). Proposal for the Dartmouth Summer Research Project on Artificial Intelligence. Dartmouth College.
6. Kokina, J., & Davenport, T. H. (2017). AI in accounting. Journal of Emerging Technologies in Accounting.
7. Appelbaum, D., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. A. (2017). Big data and analytics in auditing. Auditing: A Journal of Practice & Theory.
8. <https://cyberleninka.ru>

MEHNAT BOZORI MODERNIZATSIYASI VA BANDLIK SIYOSATI

Ergasheva Nafisa

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasi o‘qituvchisi

Xatamova Shohista

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda tez sur‘atlar bilan sodir bo‘layotgan texnologik o‘zgarishlar, globalizatsiya va demografik siljishlar har bir mamlakatning mehnat bozoriga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqola mazkur sharoitda mehnat bozorini modernizatsiya qilish va samarali bandlik siyosatini shakllantirishda duch keladigan asosiy muammolarni o‘rganadi hamda ularning yechimlarini taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: Mehnat bozori, Bandlik, Modernizatsiya, Ishsizlik, Mehnat munosabatlari, Iqtisodiy rivojlanish.